The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
Rustamova Khurshida Yusupovna	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
Komola Khikmatullaevna Usmanova	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
Boymanov Jasur Isroil o'g'li	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
Jobborov Farxod Bo'riyevich	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari	2286
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
Tursunov Mirolim Ahmadovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
Z. S. Muxtorova	
Abdulla Avloniy pedagogik asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati.....	2300
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	2304
Choriyeva Barno Alisher qizi	
O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan konstruktiv fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim (kimyo fani misolida)	2307
Azamatova Dilafruz Saydiganiyevna	
Совершенствование медиаграмотности будущих учителей начальных классов на основе интерактивных методов и геймификации	2311
Пулатова Муниса Садриддиновна	
Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	2317
Abdumannatova Nargiza Abdumajidova	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish	2320
Raxmatova Nodira Imamovna	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishning ahamiyati.....	2323
Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi	
ESG tamoyillarining global ta'lim siyosatidagi o'rni	2328
Tursunova Shahzoda Baxromovna	



Internet kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va ularning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri	2334
<i>Kamiljanova Malikaxon Ravshonbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ...	2338
<i>Yusupova Nozima Mahamadaliyevna</i>	
Духовное воспитание и концепция совершенного человека в трудах Абдурахмана Джами.....	2342
<i>Каримов Жамшид</i>	
Raqamli chalg'ish fenomeni sifatida fabbing: talabalarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori tahlili...	2347
<i>Matchanova Dilbar Yusupboyevna</i>	
Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri.....	2350
<i>Jabborova Malohat Azimovna</i>	
Challenges and Limitations of Using AI in Language Teaching	2355
<i>Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi</i>	
Rus tilidagi tadqiqotlarning tarixshunoslik talqini	2358
<i>Axmatov M. M.</i>	
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda "Keys-stadi" metodikasining ahamiyati	2362
<i>Xasanov Mansur Abrarovich, Muxammadiev Umarali Sheraliyevich</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darsida iqtidori o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari	2367
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar.....	2370
<i>Ruzikulova Surayyo Muxiddinovna</i>	
Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda jadid ma'rifatparvarlari metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslari.....	2374
<i>Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li</i>	
O'quv jarayoniga moslashuv ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	2378
<i>Sultanova Shahnoza Mirxalilovna</i>	
Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatlarning qiyosiy tahlili	2382
<i>Raxmonova E'zoza Sherzod qizi</i>	
Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish	2385
<i>Karimov Ilhom Normamatovich, Alikulova Saodat Muxitdinovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	2389
<i>Yaqubova Dinora Bahodirovna</i>	
Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari	2393
<i>X. K. Qarshiboyeva</i>	
Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся.....	2396
<i>Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи</i>	
Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati	2400
<i>Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna</i>	
O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi.....	2404
<i>O'rinova Maftuna No'mon qizi</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish	2409
<i>Xudoykulova Nilufar Xamdorovna</i>	
The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions.....	2414
<i>Mavlonova Sevinch Abdurkarim qizi</i>	
Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	2418
<i>Nazarova Marg'uba Gulamovna</i>	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
<i>Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna</i>	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
<i>Mavlanova Saidaxon Umarovna</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
<i>Yuldashev Bahodir Narzullayevich</i>	

Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
<i>Tursunonova Nozima Ilxomovna</i>	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
<i>Axmedova Gavhar Faxriddinovna</i>	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan	2451
<i>Abduxamidova Muyassar</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish	2457
<i>Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
<i>Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li</i>	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
<i>Dehqonova Mahmuda Ortiqovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
<i>G'iyosova Dilovar Orif qizi</i>	
Intellect xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish	2476
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
<i>Imomov Sirojiddin Ilhomovich</i>	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca	2486
<i>Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli</i>	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
<i>Kadirova Gulnora Xasanovna</i>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish	2496
<i>Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
<i>M. M. Qosimova</i>	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
<i>Maxmudjonov I. I.</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
<i>Muminova Dilfuza Bahromjanovna</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi	2510
<i>Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi	2513
<i>Safarova Shahlo Shuhratali qizi</i>	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
<i>Saidova Dilfuza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi</i>	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers	2526
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
<i>Shermumaxamada Diyorakhon Nurmuhamad kizi</i>	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish	2535
<i>Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li</i>	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
<i>Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriyasini bartaraf etish	2543
<i>To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li</i>	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
Uzakov Arslon Avazovich	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
Xolboboyev Shaxruz Shokirovich	
Ayollarda gender identivlik namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
Xusanboy Mamatqulov	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
Ayupova Xilola Azamatovna	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
Касимов Азиз Бердимуратович	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoeomtsional holatini tahlili.....	2578
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
Amriyeva Dilfuza Ruzievna	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
Abdusamatov Alisher Sobirovich	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
To'rabekov Farxod Sanakulovich	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
Abdulfattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
Gulmira Kamoladdinovna Madirimova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
Raxmatova Nodira	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
Nosirova Dilnoza Toir qizi	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
Musurmonova Shahlo G'ulomovna	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
Rashidova Sanobar Zokirovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
Qosimova Zuhaxon G'afur qizi	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari	2647
Karimova Kamola Komil qizi	
Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari	2651
Yavminova Nafisa Mashrobjonovna	
Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	2654
Achilov Oybek Hakimovich	
Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi	2657
Adilbekov To'xtayevich	
Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar	2661
Allamuratov Mirtaza	
Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish	2665
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan	2669
Gulnaz Nabatovna Bekimbetova	
Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi	2673
O'rinov Oblaqul Jumayevich	
Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам	2676
Шукурова Сайёра Садуллаевна	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili	2680
Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li	
Teaching Perfect English Pronunciation	2683
Uralova Nigora Abduvaliyevna	



PEDAGOGIK MAHORAT ASOSIDA TA'LIM METODLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Karimov Ilhom Normamatovich

Qarshi davlat texnika universiteti dotsent v.b.

Alikulova Saodat Muxitdinovna

Qarshi davlat texnika universiteti assistent

Annotatsiya: Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish bugungi kunda ta'lim sifatini yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'qituvchining kasbiy yetukligi, didaktik mahorati, psixologik sezgirligi hamda nutq madaniyati ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik mahorat nafaqat bilimlarni yetkazish, balki o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Natijada ta'lim metodlarining samaradorligi oshib, sifatli va zamonaviy ta'lim muhiti shakllanadi.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, kasbiy yetuklik, didaktik mahorat, psixologik sezgirlik, nutq madaniyati, tarbiyaviy ta'sir, kasbiy bilim, ko'nikma.

Abstract: Improving the effectiveness of teaching methods based on pedagogical mastery is one of the key factors in enhancing the quality of education in the modern context. A teacher's professional maturity, didactic mastery, psychological sensitivity, and speech culture have a direct impact on the effectiveness of the educational process. Pedagogical mastery is manifested not only in the transmission of knowledge but also in fostering students' critical thinking, creative approaches, and independent learning skills. As a result, the effectiveness of teaching methods increases, leading to the development of a high-quality and contemporary educational environment.

Key words: pedagogical mastery, professional maturity, didactic mastery, psychological sensitivity, speech culture, educational influence, professional knowledge, skills.

Аннотация: Повышение эффективности методов обучения на основе педагогического мастерства является одним из ключевых факторов совершенствования качества образования на современном этапе. Профессиональная зрелость, дидактическое мастерство, психологическая чувствительность и культура речи преподавателя оказывают непосредственное влияние на результативность образовательного процесса. Педагогическое мастерство проявляется не только в передаче знаний, но и в формировании у обучающихся критического мышления, творческого подхода и навыков самостоятельного обучения. В результате повышается эффективность методов обучения и формируется качественный, современный образовательный процесс.

Ключевые слова: педагогическое мастерство, профессиональная зрелость, дидактическое мастерство, психологическая чувствительность, культура речи, воспитательное воздействие, профессиональные знания, навыки.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Ta'lim jarayonining sifat va samaradorligi, o'quvchilarning bilim darajasi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyati hamda hayotga tayyorgarligi, avvalo, o'qituvchining shaxsiy fazilatlar, kasbiy saviyasi va pedagogik mahoratiga bog'liq. Shu sababli bugungi kunda "pedagogik mahorat" tushunchasi ta'lim jarayonining markaziy kategoriyasiga aylangan. U o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan mehr-muhabbati, didaktik yondashuvi, muloqot madaniyati hamda o'quvchi bilan ishlash san'atini o'zida mujassam etadi.

Elektr energetika sohasida pedagogik mahorat – bu o'qituvchining nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirib, o'quvchilarga texnik tafakkur va kasbiy malakalarni samarali o'rgata olish qobiliyatidir. Bunday o'qituvchi elektr zanjirlari, avtomatika, kontaktorlar va transformatorlar kabi murakkab jarayonlarni sodda, tushunarli hamda hayotiy misollar asosida izohlab bera oladi. U dars jarayonida zamonaviy texnologiyalar, kompyuter simulyatorlari va interfaol metodlardan samarali foydalanadi. Pedagogik mahoratga ega o'qituvchi nafaqat bilim beradi, balki o'quvchilarda xavfsizlik madaniyatini, mas'uliyat, aniqlik va tartibni shakllantiradi. Elektr energetika sohasida bunday yondashuv o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlab, ularning

kelajakda malakali muhandis yoki texnik mutaxassis bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Shu tariqa pedagogik mahorat soha taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda pedagogik mahorat o'qituvchining kasbiy yetukligi bilan chambarchas bog'liq tushuncha sifatida talqin etiladi. Kasbiy yetuklik o'qituvchining o'z fanini chuqur bilishi va mazkur bilimlarni o'quvchilarga sodda hamda tushunarli tarzda yetkazib bera olishida namoyon bo'ladi. Didaktik mahorat esa murakkab bilimlarni hayotiy misollar, tajribalar va amaliy mashqlar orqali izohlash qobiliyatida aks etadi. Tadqiqotchilar ushbu jihatlarni ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillar sifatida e'tirof etadilar.

Psixologik sezgirlik pedagogik mahoratning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u har bir o'quvchining hissiy holatini anglash va unga individual yondashishni taqozo etadi. Shu bilan birga, nutq madaniyati o'qituvchining aniq, lo'nda, ta'sirchan va adabiy me'yorlarga mos nutqdan foydalanishini ifodalaydi. Ilmiy manbalarda nutq orqali o'quvchilarga ilhom berish, ularni faollikka undash pedagogik ta'sirning samarali shakli sifatida baholalanadi. Motivatsiya yaratish qobiliyati esa o'quvchilarni o'qishga, izlanishga va savol berishga undashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, tarbiyaviy ta'sir orqali dars jarayonida nafaqat bilim, balki insoniy fazilatlarni shakllantirish imkoniyati vujudga keladi.

Pedagogik mahorat tug'ma qobiliyat emas, balki doimiy izlanish, ta'lim olish, tajriba to'plash va o'z ustida ishlash orqali shakllanadigan murakkab jarayondir. Ilmiy adabiyotlarda pedagogik mahoratni rivojlantirishning muhim yo'llari sifatida kasbiy o'sishni ta'minlash, malaka oshirish kurslarida muntazam ishtirok etish, ilmiy-nazariy adabiyotlarni o'rganish hamda yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish ko'rsatib o'tiladi. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ularni amaliyotga joriy etish o'qituvchining kasbiy salohiyatini yanada boyitadi.

Zamonaviy ta'lim sharoitida innovatsion texnologiyalardan foydalanish pedagogik mahoratni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda interfaol metodlardan foydalanish dars jarayonini jonlantiradi va o'quvchini faol subyektga aylantiradi. Shu bilan birga, psixologik madaniyatni oshirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlari, temperamentlari va ehtiyojlarini hisobga olish ham pedagogik mahorat ko'rsatkichlaridan biridir. Har bir o'quvchiga individual yondashuvni tanlash o'qituvchining professional darajasini belgilaydi.

Pedagogik mahoratning mazmuni va mohiyati o'qituvchining kasbiy faoliyatini yuksak darajada tashkil eta olishida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda kasbiy bilim va ko'nikmalar alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'z fani, pedagogika, psixologiya, metodika va ta'lim texnologiyalari sohasida chuqur bilimga ega bo'lishi lozim. Fan sohasidagi bilimlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg'unlashtira bilish pedagogik mahoratning muhim belgilaridan biri sanaladi.

Pedagogik texnika o'qituvchining darsni samarali tashkil etish, vaqtni to'g'ri taqsimlash, ijobiy psixologik muhit yaratish, nutqini boshqarish hamda mimika va jestlardan o'rinli foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Nutqning aniq, ravon va obrazli bo'lishi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shuningdek, tinglash, savol berish, rag'batlantirish va tanbeh berishning madaniyatli shakllaridan foydalanish ham pedagogik texnikaning muhim jihatlardan hisoblanadi.

Pedagogik muloqot pedagogik mahoratning markaziy bo'g'ini bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samimiy, ishonchli va hurmatga asoslangan munosabatni ta'minlaydi. Muloqot jarayonida mehr, e'tibor va sabr-toqat ustuvor bo'lishi ta'lim samaradorligini oshiradi. Muloqot madaniyati yuqori bo'lgan o'qituvchi har qanday vaziyatda o'quvchi shaxsini kamsitmasdan, ijobiy motivatsiya asosida yo'naltira oladi.

Ijodkorlik va yangilikka intilish zamonaviy pedagog faoliyatining muhim xususiyatidir. Ijodkor o'qituvchi dars jarayonini san'at darajasiga ko'tarib, yangi metodlar, o'yin elementlari, muammoli vaziyatlar va loyiha ishlari orqali o'quvchini faol ishtirokchiga aylantiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik refleksiya, ya'ni o'z faoliyatini tahlil qilish o'qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Har bir darsdan so'ng natijalarni tahlil qilish, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash va yo'l qo'yilgan xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish pedagogik o'sishning muhim sharti hisoblanadi. Refleksiya o'qituvchining kasbiy mahoratini doimiy ravishda takomillashtirib borishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida pedagogik mahoratning yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Zamonaviy sharoitda o'qituvchi raqamli vositalardan samarali foydalanishi, onlayn va gibrid o'qitish metodikasini egallashi, o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil eta olishi lozim. Ushbu talablar pedagogik mahoratning zamonaviy mazmunini belgilab beradi.



Pedagogik metodlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish yo'llari sifatida talqin etiladi. Ular ta'lim jarayonining asosiy vositasi bo'lib, bilim, ko'nikma va malakalarni egalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik metodlar xilma-xil bo'lib, ularga tushuntirish, suhbat, kuzatish, amaliy mashg'ulot, muammoli ta'lim, interfaol va innovatsion yondashuvlar kiradi. Har bir metodning samaradorligi o'qituvchining pedagogik mahorati, dars maqsadi hamda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga bog'liq. To'g'ri tanlangan metodlar o'quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va ijodiy izlanishga undaydi. Shu sababli pedagogik metodlar ta'lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Ta'limning muammoni qidiruv usuli o'quvchilarni tayyor javoblarni yodlab olishga emas, balki muammoni mustaqil tahlil qilish va uning yechimini topishga yo'naltiruvchi ta'limiy faoliyat shaklidir. Ushbu usulda o'qituvchi tayyor bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning izlanish faoliyatini tashkil etuvchi va boshqaruvchi rahbar rolini bajaradi. Muammoni qidiruv usulining mohiyati o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, taxmin ilgari surish va uni dalillar asosida isbotlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mazkur usulda o'qituvchi dars jarayonida muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchilar esa ushbu vaziyatni tahlil qilib, turli yechim variantlarini taklif etadilar. Jarayon davomida o'quvchilar savollar beradi, taxminlar ilgari suradi, munozaralar olib boradi va ilmiy fikrlash asosida to'g'ri xulosaga yaqinlashadi. Natijada o'quvchilarda mustaqil izlanish, mantiqiy tahlil, ijodiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Muammoni qidiruv usuli, ayniqsa, texnik, tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'qitishda samarali hisoblanadi, chunki u real hayotdagi muammolarni tahlil qilishga asoslanadi. O'quvchi o'z bilim va tajribasiga tayangan holda yangi bilimni mustaqil ravishda "kashf etadi". Shu bois ushbu metod o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi, uning o'rganishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi hamda zamonaviy ta'limning samarali yondashuvlaridan biri sifatida o'quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil o'rganish va muammoni tahliliy hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ta'limning namoyish qilish usuli o'qitish jarayonida o'rganilayotgan hodisa, jarayon yoki predmetni ko'rsatish, tasvirlash va modellashirish orqali bilim berishga asoslangan metod hisoblanadi. Ushbu usul o'quvchilarga mavzuni nafaqat eshitish, balki ko'rish va amalda kuzatish imkoniyatini yaratadi. Namoyish qilish usuli vizual idrokni faollashtirib, mavzuni chuqurroq anglash, tahlil qilish va eslab qolishni osonlashtiradi.

Mazkur metodda o'qituvchi tajribalar, plakatlar, chizmalar, diagrammalar, videomateriallar, texnik modellar yoki real jihozlar yordamida darsni tashkil etadi. Ayniqsa, texnik va tabiiy fanlarda, jumladan elektr energetika, fizika va biologiya kabi sohalarida namoyish qilish usuli katta ahamiyatga ega. Chunki o'quvchilar murakkab jarayonlarni, xususan, elektr zanjirining ishlashi, magnit maydon ta'siri, mexanik harakat yoki kimyoviy reaksiyalarni bevosita kuzatish va amaliy natijani ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu metodning samaradorligi o'qituvchining tayyorgarlik darajasiga, foydalaniladigan vositalarning to'g'ri tanlanishiga hamda ko'rsatilayotgan obyektning o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasiga mosligiga bog'liq. Namoyish jarayonida o'qituvchi nafaqat ko'rsatadi, balki o'quvchilarni fikrlashga, kuzatilayotgan hodisani tahlil qilishga va xulosalar chiqarishga undaydi.

Ta'lim tamoyillari ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etish va samarali boshqarish uchun asos bo'ladigan muhim didaktik qoidalar tizimini ifodalaydi. Har bir ta'lim tamoyili o'qitish jarayonida aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchi shaxsining rivojlanishiga xizmat qiladi. Asosiy ta'lim tamoyillariga ilmiylik, tizimlilik, ongli va faollik, hayot bilan bog'liqlik, ko'rgazmalilik, mustahkamlik, izchillik hamda individuallashtirish kiradi.

Ilmiylik tamoyili ta'lim mazmunini zamonaviy fan yutuqlari asosida tashkil etishni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchilarga ilmiy jihatdan asoslangan va ishonchli ma'lumotlarni yetkazishi lozim. Tizimlilik va izchillik tamoyillari esa bilimlarning tartibli hamda bosqichma-bosqich o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Har bir yangi mavzu oldingi bilimlarga tayangan holda o'rganiladi, bu esa o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Ongli va faol ishtirok tamoyili o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi va ularni o'z fikrlarini erkin ifoda etishga undaydi. Hayot bilan bog'liqlik tamoyili esa o'rganilayotgan bilimlarning amaliyotda qo'llanilishini ta'minlab, o'quvchilarni real hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlaydi.

Ko'rgazmalilik tamoyili o'quv materiallarini ko'rish, eshitish, tajribalar va modellar orqali yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bilimlarning mustahkamligi esa o'quvchilarning o'zlashtirilgan bilimlarni uzoq vaqt davomida eslab qolishlari va ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishlariga yo'naltiriladi.

Pedagogik yondashuv ta'lim jarayonini tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar tizimi, metod va usullarni maqsadga yo'naltirilgan holda tanlashni ifodalaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olib, ularning mustaqil fikrlashini va ijodiy faolligini rivojlantirishga qaratiladi. Pedagogik yondashuvda o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o'quvchini o'rganishga undovchi va yo'naltiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bunday yondashuv ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchini faol subyektga aylantiradi hamda shaxsiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.



Texnologik yondashuv ta'lim jarayonini oldindan rejalashtirilgan, tizimli va natijaga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish usuli hisoblanadi. Ushbu yondashuvda har bir bosqich – maqsadni belgilash, metodlarni tanlash, o'qitish jarayonini boshqarish va natijalarni baholash – aniq reja asosida amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv o'qitish sifatini oshirish, o'quvchi faoliyatini nazorat qilish va kutilgan natijalarga erishishni ta'minlaydi. U zamonaviy axborot texnologiyalari, innovatsion metodlar va interfaol vositalardan foydalanishni nazarda tutadi. Natijada ta'lim jarayoni samarali, puxta o'ylangan va amaliy natijaga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ta'limning mulohazalarga asoslangan qarori o'quvchilarning fikrlash, tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlariga tayangan ta'lim yondashuvi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvda o'quvchi tayyor javobni qabul qilmaydi, balki muammoni o'rganish, dalillarni tahlil qilish va asosli qaror qabul qilish orqali bilimga ega bo'ladi. O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi, savol beruvchi va fikrlashni rag'batlantiruvchi rolni bajaradi. Bunday ta'lim usuli o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mas'uliyatli qaror qabul qilish hamda o'z fikrini dalillar asosida himoya qilish ko'nikmalarini rivojlantirib, ularni mustaqil o'rganishga undaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish bugungi ta'lim tizimida eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'qituvchining bilim darajasi, kasbiy mahorati, muloqot madaniyati hamda dars jarayonini tashkil etish uslubi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqori pedagogik mahoratga ega o'qituvchi har bir darsni o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtiradi hamda interfaol metodlardan samarali foydalanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va ijodiy yondashishga undaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va interaktiv tashkil etish imkonini beradi. Natijada pedagogik mahorat asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilim sifatini oshiradi, ularning tafakkuri va dunyoqarashini kengaytiradi hamda ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.N. Intellectual competency development for the students of technical higher education institutions // Central Asian Problems of Modern Science and Education. September – 2021. Pp. 106–117.
2. Karimov I.N. Kompetentlik va kasbiy kompetentlik tushunchalari mohiyati va ilmiy tahlili // Ta'lim, fan va innovatsiya. 2020/1-son. 21–26-b.
3. Karimov I.N. Ta'lim jarayonida talabalarning intellektual kompetentligini rivojlantirish // Zamonaviy ta'lim jurnali. № 2 (87). 2020. 16–21-b.
4. Karimov I.N. Intellektual kompetensiya va uning ta'lim jarayonida rivojlanishi // Pedagogika. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022. 55–59-b.
5. Karimov I.N. O'qitishda innovatsion usullardan foydalanish // Nauka i obrazovaniye v sovremennom mire: vyzovy XXI veka. V Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya materiallari. Nur-Sulton – Qozog'iston, 2019. 22–25-b.
6. Karimov I.N. Ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarishda ta'lim sifatini oshiruvchi omillar tasnifi // Muallim ham uzluksiz bilimlendiriv. Ilmiy-metodik jurnal. 4/1-son. Nukus, 2024. 145–150-b.
7. Karimov I.N. Development of students' intellectual competencies in the learning process // Tendentsii i perspektivy razvitiya nauki i obrazovaniya v usloviyakh globalizatsii. Выпуск – 55. Pereyaslav, 31-yanvar – 2020. 254–258-b.
8. Karimov I.N. Ta'lim innovatsiyalari asosida talabalarda bilish mustaqilligini rivojlantirishning psixologik muammolari // O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim. Konferensiya to'plami. № 1 (3-qism). 26-mart – 2020. 319–322-b.
9. Karimov I.N. Pedagogik texnologiyalardan faol foydalanish ta'lim innovatsiyasi sifatida // Samarqand viloyatini innovatsion rivojlantirish: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand – 2020. 83–88-b.
10. Karimov I.N. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida kasbiy kreativlik faoliyatini tashkil etish // Yoshlarda kitobxonlik tafakkurini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni va dolzarbligi. Respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. Qarshi, 5–6-may – 2021. 405–411-b.
11. Karimov I.N. Motivatsiya studentov k samostoyatel'nomu myshleniyu // Sredneye professional'noye obrazovaniye. Oktyabr. № 10 (314). 2021. 25–28-b.
12. Karimov I.N. Formation of creative abilities of teachers in future professional education // Tendentsii i perspektivy razvitiya nauki i obrazovaniya v usloviyakh globalizatsii. Выпуск – 76. Pereyaslav, 30-oktabr – 2021. 148–150-b.
13. Karimov I.N. Ta'lim ishtirokchilarining intellektini oshiruvchi axborot ta'minotining samaradorligi // Energiya va resurs tejankor innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 23–24-sentabr – 2022. 700–703-b.
14. Karimov I.N. Talabalarda intellektual samaradorlikni oshirishda innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanishning nazariy asoslari // Ta'lim tizimini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: dolzarbligi, muammolari va istiqbollari. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 26–27-aprel – 2024.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.